

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Valijon Qodirov, Odiljon Akbarov

Chingiz Aytmatov ijodida manqurtlik illati tahlili va uning ma'rifiy ahamiyati.....6

Saodat Kambarova

Ijodkor shaxsiyatini o'rganishda optimal yondashuvlar.....21

Sulaymon Haydarov

O'zbekiston tarixi darslari samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari (tarixiy miniatyuralar misolida).....31

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Shohidaxon Yusupova

Ona tilini o'qitishda tasavvurning o'rni.....45

Klaraxon Mavlonova

7-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish mazmuni.....55

Malohat Axmedova

Talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari.....70

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Safo Matchonov

Adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etishning konseptual asoslari.....81

Shahnoza Rakhmonova

9-sinf adabiyot darslarida ramal, hazaj va rajaz bahrlarida yaratilgan janrlarni o'rgatish usullari.....94

Umida Shermatova

Adabiy ta'limda differensial yonndashuv.....113

Iroda Ishonxanova

Alisher Navoiy ijodini qiyoslab o'rganish.....125

CONTENT

GLOBAL EDUCATION PROBLEMS: SOLUTIONS AND SUGGESTIONS

Valijon Kadirov, Odiljon Akbarov

Analysis of insensibleness in the works of Chingiz Aitmatov and its enlightenment significance.....6

Saodat Kambarova

Optimal approaches to the study of creator personality..... 21

Sulaymon Haydarov

Didactic opportunities to increase the effectiveness of Uzbekistan history lessons (on the example of historical miniatures)..... 31

THEORY AND PRACTICE OF LANGUAGE EDUCATION

Shohidaxon Yusupova

The role of imagination in mother tongue teaching..... 45

Klaraxon Mavlonova

Content of teaching text structure in 7th grade mother tongue lessons...55

Malohat Akhmedova

Methodological features of developing students' independent learning skills.....70

INNOVATIVE APPROACH TO LITERATURE TEACHING

Safo Matchonov

Conceptual bases of the organization of independent work from the literature.....81

Shahnoza Rakhmonova

Methods of teaching genres created in ramal, hazaj and rajaz style in 9th grade literature classes.....94

Umida Shermatova

Differential approach in literary education.....113

Iroda Ishonkhanova

Comparative study of Alisher Navoi's works.....125

Adabiy ta'limda differensial yondashuv

Umida Shermatova¹

Abstrakt

Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan texnologik jarayonlar adabiyotni chuqur anglash, u orqali hayot yo'lini belgilash ko'nikmalarini shakllantirish bilan uyg'un holda amaliyotga tatbiq etilmoqda. Differensial (tabaqalashtirilgan) ta'lim tizimining yaratilishi muammoning alohida yechimi sifatida yuzaga keldi. Tabaqalashtirilgan ta'lim muassasalarining tashkil etilishi bilan fanlarni o'qitish metodikasi oldida bir qator masalalarni hal etish vazifasi paydo bo'ldi. Jumladan, filologik fanlarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarda adabiyot o'qitish bilan bog'liq muammolar badiiy matnni chuqur tushunish, tahlil eta olish hamda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar asosida ijod etishga o'rgatish yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Milliy uyg'onish davri adabiyoti o'quvchilarni turli insoniy xarakterlar, ularning milliy va umumbashariy mazmuni bilan tanishtirishi jihatidan muhim ahamiyatga ega. Bu davr adabiyotini o'rganishda o'quvchilarni insho yozishga o'rgatish mavzu bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Badiiy ijodning dastlabki ko'rinishi bo'lgan insho yozish o'quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab etadi. Maqolada tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limida milliy uyg'onish davrining yirik vakili Cho'lpon lirikasi yuzasidan insho yozishga o'rgatish metodikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *mohiyat, ma'naviy kamolot, ixtisoslashtirilgan adabiyot ta'limi, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri, milliy uyg'onish davri adabiyoti, Cho'lpon ijodi, insho, badiiy tahlil.*

Kirish

Jahon tamadduni rivojiga hissa qo'shgan buyuk faylasuflar o'z qarashlarida inson ikki marotaba: biri – jismoniy, ikkinchisi – ma'naviy kamolotga erishishini ta'kidlaganlar. Ma'naviy kamolot o'zining murakkab, uzoq va qiyin kechadigan jarayon ekanligi bilan birinchisidan ustun turadi. Insonning ma'naviy kamolotida badiiy

¹ *Shermatova Umida Sapayevna* – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi.

E-pochta: abdulazizmannopov07@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-3232-3598

Iqtibos uchun: Shermatova, U. 2022. "Adabiy ta'limda differensial yondashuv". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (4): 113-124

asarni tushunish, idrok qilish va tegishli xulosa chiqarish bilan bog'liq adabiy ta'lim boshqa fanlardan tubdan farq qiladi. Negaki, aynan badiiy adabiyotda insoniyatning madaniy, tarixiy, axloqiy va ma'naviy tajribasi badiiy va falsafiy uyg'unlikda tasvirlanadi. Badiiy adabiyotning mohiyati zahirida odamning o'ziga, jamiyatga, tabiatga, olamga munosabati yotadiki, uni anglash badiiy-estetik tafakkuri shakllanmagan, falsafiy mushohadaga tayyor bo'lmagan o'smirlarda badiiy asar mutolaasi vositasida hayotiy zarur savollariga javob topish qiyin kechishi tabiiy. Ma'lum hayotiy tajribaga ega, yashashdan ma'no va maqsadni o'z tajribasidan kelib chi-qib anglaydigan kishilar uchun mo'ljallangan badiiy adabiyot namunalarini o'qib tushunish qiyinligi o'zining hayoti hamda duch kelayotgan muammolari orasidagi bog'liqlikni yoshi, turmush tarzi bilan tubdan farq qiluvchi asar qahramonlaridan topa olmasliklari bilan izohlanadi. Shuni nazarda tutib, adabiyot ta'limini tashkil etishda filolog-o'qituvchining darsga falsafiy-estetik kurs sifatida yondashishi maqsadga muvofiq.

Asosiy qism

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim-tarbiya tizimida shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan texnologik jarayonlar adabiyotni chuqur anglash, u orqali hayot yo'lini belgilash ko'nikmalarini shakllantirish bilan uyg'un holda amaliyotga tatbiq etilmoqda. Adabiyot o'qitishda asosiy yondashuvlardan biri kitobxon-o'quvchini badiiy matnga yaqinlashtirish, moslash hisoblanadi. Har bir anglangan hodisa unga yaqin, qadrdon bo'lib qoladi. O'z yaqinlari maslahatlariga quloq tutish inson fitratida ham o'z mujassamini topgan.

Zamonaviy adabiyot ta'limida o'qituvchi: dasturda tavsiya etilgan materialning katta hajmliligi, unga ajratilgan vaqtning kamligi; o'quvchilarning faolligi, o'z qarashlarini bildirishga bo'lgan kuchli istak, lekin bunda badiiy tahlil ko'nikmalarining shakllanmaganligi sababli asarning badiiy matniga tayanmaslik kabi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, o'quvchining shaxsiy qarashlarini shakllantirish, o'z qarashlarini dalillar asosida bayon etishga o'rgatish hamda bunga qarama-qarshi bo'lgan badiiy asarni adabiy-tanqidiy maqolalar bilan almashtirib o'qitish asarni anglashda qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. Mazkur muammolar o'quvchilarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz adabiyot o'qishga qanday qiziqtirish mumkin degan savolni o'rta tashlaydi.

Muammolar yechimini adabiyot o'qitish metodikasi hal etish imkoniga ega. Masalaning yana boshqa bir tomoni borki, bu

bevosita yangi tashkil etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda adabiyot darslarini tashkil etish bilan bog'liq.

Ma'lumki, pedagogikada differensial ta'lim, uni tashkil etish asoslari yuzasidan ko'plab ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilgan. G.K.Selevkoning "Ta'lim texnologiyalari ensiklopediyasi" (*Энциклопедия образовательных технологий*) [Селевко 2005, 407] nomli o'quv-uslubiy qo'llanmasi shunday tadqiqotlar jamlanmasini o'zida aks ettirgan. Ensiklopediyada differensial ta'lim asosi differensial yondashuv sifatida talqin etilgan. Unga ko'ra differensial yondashuvni amalga oshirish bir tipdagi go-mogen o'quvchilar guruhlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar aynan shu tamoyil asosida yaratildi. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablari oldiga o'quvchilari-da vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, bag'rikenglik tuyg'ularini, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish, ularning ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini oshirish vazifasi qo'yildi. Bu vazifani bajarishda differensial adabiyot ta'limini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

O'rta umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitish metodikasi o'zining nazariy asoslariga ega, ammo Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda adabiyot ta'limini yo'lga qo'yish, uning metodologik asoslarini yaratish ishlari amalga oshirilmagan. Mazkur muammoning dolzarbligi adabiyotga maxsus ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalarida adabiyot o'qitishni pedagogik innovatsion ta'lim klasteri sharoitida tashkil etish masalalarini yoritishga bag'ishlanganligi bilan izohlanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligini qadrlashga o'rgatish nuqtayi nazaridan adabiyot faniga ixtisoslashtirilgan o'rta ta'lim maktablari adabiyot dasturida milliy uyg'onish davri adabiyotiga nisbatan keng joy ajratilgan. Bu davr adabiyoti o'quvchilarni turli insoniy xarakterlar, ularning milliy va umumbashariy mazmuni bilan tanishtirishi jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o'zining badiiy-tarbiyaviy imkoniyatining kengligi hamda mavzu va janr xilma-xilligi bilan ham bu davr adabiyoti kengroq miqyosda yondashishni taqozo etadi. Adabiyot dasturining konseptual va xronologik tamoyil asosida tuzilganligini hisobga olsak, milliy uyg'onish davri adabiyoti umumta'lim maktablarining barcha sinflarida o'rganilishi ko'zda tutilgan.

Milliy uyg'onish davri adabiyoti haqida so'z ketar ekan,

bu borada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining qay darajada ekanligi kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Bu borada taniqli jadidshunos Begali Qosimovning g'oyatda tashvishlanib bildirgan quyidagi fikr-mulohazalari masalaga ancha oydinlik kiritishi mumkin: "Avvalo, ko'lam haqida, – deb yozgan edi olim, – Biz 1983 yilda chop etgan "Izlay-izlay topganim..." risolamizda 1905–17-yillar adabiyotiga bevosita daxldor bo'lgan 84 nomni keltirgan edik. Bu 18 yil oldingi ma'lumot. Bu raqam hozir, shubhasiz, ko'paygan. Ikkinchidan, milliy uyg'onish davrini biz uch bosqichga bo'lamiz: 1865–1905 yillar; 1905–1917 yillar; 1917–1929 yillar. 84 raqami shu uch bosqichning birgina davriga tegishli. Agar har uch bosqichda yashab ijod etgan adiblar adadi jamlansa, 300 dan oshishiga shubha yo'q. Adabiyotning ko'lam darajasini ijodkorlar adadi belgilagan emas, albatta. Lekin, ayni paytda o'shanday sharoitda shuncha qalamkashning faoliyat ko'rsatishi, bu sokinlik nishonasi emas, aksincha, qizg'in adabiy jarayon, milliy uyg'onish belgilaridan hamdir. Lekin biz ulardan bugun qanchasini tanib oldik? Nechta ijodkorning asari o'quvchilarga yetdi? Nechta ijodkorning asari ilmiy muomalaga kiritildi? Bu boradagi ishlar tog'day bo'lib oldinda turibdi" [Qosimov 2002, 400].

Muammolar ko'p, lekin ilmiy izlanishlar, tadqiqot ishlar vazni ham salmoqli. Bu borada E.Karimov, B.Qosimov, A.Jalolov, B.Nazarovlar XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkistonda sodir bo'lgan voqealar, ularning sababi va ahamiyati, adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni haqida fundamental tadqiqotlar olib borishgan. Mustaqillik davri jadidshunosligi yuzasidan olib borilgan aksariyat izlanishlar jadid ziyolilarining biografiyasi, asarlarining qamrovi va mavzu ko'lami tadqiqiga bag'ishlangan. I.G'aniyev, B.Karimov, U.Jo'raqulov, D.Quronov, A.Davlatovalarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida ham jadid adabiyotining o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Milliy uyg'onish davri adabiyoti vakillarining pedagogik qarashlari yuzasidan ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu borada M.Jamolitdinov, N.Irgasheva, Z.Axrorova, D.Axatova, K.Vohidovalarning nomzodlik dissertatsiyalari e'tiborga loyiq.

Maktabda milliy uyg'onish davri adabiyotini o'qitish metodikasi yuzasidan maxsus tadqiqot ishlarining olib borilmaganligi muammo mavzusi dolzarbligining yana bir isbotidir. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ta'lim tizimiga tadbqiq qilinishi ushbu muammoning yechimiga muayyan darajada xizmat qiladi. Klaster atamasi ijtimoiy hayotimizga yaqin 10 yillar ichida kirib kelgan.

Lekin hozirgi kunda davlatimiz iqtisodiy sohasida boshlangan klasterning innovatsion ko'rinishi yangicha mazmun kashf etdi.


Klaster atamasiga berilgan dastlabki tavsif iqtisodchi va biolog olimlar M.Raxmatov, B.Zaripovning "Klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish" kitobida keltirilgan: "Klaster" atamasi fransuzcha so'z bo'lib, o'zbekcha tarjimasi "bog'lam", "guruh", "to'planish" ma'nolarini beradi. "Klaster" nazariyasining asosi bo'lib, Alfred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan "Iqtisodiyot prinsiplari" nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq-sohalarining alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. [Paxmatov 2018, 9].

Kitobda iqtisod sohasining rivojlanishida innovatsion klasterning ahamiyati haqida ham alohida to'xtalib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Jahon iqtisodiyotida kechayotgan integratsiya jarayoni uning globallashuviga kattata'sir ko'rsatmoqda. Bu birtomondan qo'shimcha qiymat yaratishning transmilliy "zanjiri"ni ko'zda tutgan holda, ikkinchi tomondan ishlab chiqarish sohasida ham raqobatni kuchaytirmoqda. Globallashish asosida logistika va tovarlar hamda xizmatlar sifatini ham standartlashtirishni ta'minlovchi umumjahon kommunikatsiya tizimi ham rivojlanib bormoqda. Qolaversa, aholi soni muttasil oshib borishi ish bilan ta'minlash, aholiga qulay faoliyat jarayonini yaratishni taqozo etayotir" [Paxmatov 2018, 32].

Iqtisodning innovatsion klasteri bir bo'g'ini hisoblangan ilm-fan sohasi, o'z navbatida, o'z ichida rivojlanishning innovatsion klaster tizimini taqozo etmoqda. Ta'lim tizimi ilm-fan rivoji innovatsion klasterining bir bo'g'ini sifatida nisbatan endi o'rganilib, tatbiq etilmoqda. Jumladan, pedagog olim U.N.Xo'jamqulovning tadqiqotlarida pedagogik ta'lim klasteri 3 ta yo'nalishda olib borilishi qayd etilgan.

1. Ilm-fan yo'nalishi.
2. Ta'lim- tarbiya yo'nalishi.
3. Ta'lim vositalari yo'nalishi [Xўjamқulов 2019, 57]

Mazkur pedagogik ta'lim innovatsion klasterining uch yo'nalishi asosida maktabda milliy uyg'onish davri adabiyotini o'rgatish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:



O'quvchilarni milliy uyg'onish davri adabiyotining metodik asoslari bilan tanishtirishning ilk bosqichi 5-sinfda Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi hamda Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan olingan "Vatanni suymak" nomli parcha, "Vatan" she'rini o'rganishdan boshlanadi.

Ma'lumki, 5-sinf "Adabiyot" darsligiga o'quvchi yoshi bilan teng qahramonlar ishtirok etgan o'tkir konfliktli badiiy asarlar kiritilgan. "Uloqda" hikoyasi ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Bunday hikoyani o'rganishdan maqsad o'quvchida syujet va konfliktning badiiy asarni shakllantiruvchi markaz sifatida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida tushuncha hosil qilishdir. O'quvchilar hikoya bilan tanishish asnosida milliy uyg'onish davri adabiyoti haqida ilk tasavvurga ega bo'ladilar. Darslikda quyidagi ma'lumotlar aynan shu maqsadga qaratilgan.

"Fitrat ijodidan tanlangan namunalarning uchtdan ikkitasi – "Mirrix yulduziga", "O'git" she'rlarining talqin va tahlili shoir tarjimai holi bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi mumkin" [Sultonmurod Olim 2006, 55].

Mavzu yuzasidan olingan mazkur ma'lumotlar o'quvchilarni Cho'lpon ijodi bilan tanishishlarida ham ko'prik vazifasini o'taydi. Cho'lpon ijodini o'rganish ko'zda tutilgan 7-sinf adabiyot darslari adabiy ta'limning yangi bir bosqichi sifatida alohida asarni o'rganishdan yozuvchining g'oyaviy-badiiy o'ziga xosligini tushunishga o'rgatishga o'tishi bilan e'tiborga molikdir. Ma'lumki, Cho'lpon shaxsi haqidagi to'liq tasavvur uning she'riyati bilan tanishgachgina hosil bo'ladi. Shu jihatdan dasturda o'rganilishi ko'zda tutilgan Cho'lponning g'arb modernistlari ta'sirida yaratgan she'rlari qo'yilgan maqsadni amalga oshirishda yordam berishi, shubhasiz.

Shoir ijodi yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar natijasini baholashda o'quvchilarni insho yozishga tayyorlash muhimligini nazarda tutib, davlatimiz rahbarining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qaroriga muvofiq davlat dasturi bo'yicha har yili o'tkazish rejalashtirilgan "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovida o'quvchilar ishtirokini ta'minlash yuzasidan o'quvchilarni "Cho'lpon lirikasida Vatan timsoli" mavzusida insho yozishga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilarni insho yozish jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar bilan tanishtirish.

2. “Binafsha” she’rining qisqa fragmentli tahlili misolida she’riy tahlilning o’ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.

3. Insho kompozitsiyasi yuzasidan tavsiyalar berish.

4. Ijodiy yozma ishlar vositasida o’quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishdan oldin o’quvchilar mavzu yuzasidan insho yozish tartibi bilan tanishtiriladi hamda tayyorgarlik ko’lami belgilanadi, mavjud umumiy qoidalar ta’kidlanadi. Masalan, mavzu yuzasidan reja tuzish; material tanlash; dalillar to’plash; aniqlangan dalillar asosida tezis tayyorlash kabilar shular jumlasidandir.

So’ngra berilgan mavzu yuzasidan quyidagi masalalar doirasida savol-javob o’tkaziladi:

– insho mavzusida nimalar nazarda tutilgan?

– mavzuni yoritishda qanday vazifalar bajariladi?

– “Vatan timsoli” deganda nima tushuniladi?

– shoir Vatan timsolini yaratishda qanday badiiy san’atlardan foydalangan?

– shoirning Vatanga bo’lgan munosabati qanday ramzlar vositasida ifodalagan?

Shoirning she’rdan anglashilgan maslagi (Vatan taqdiri haqidagi tasavvurlari) yuzasidan o’quvchilar bildirgan fikr-mulohazalar umumlashtiriladi.

Insho mavzusiga doir ma’lumot to’plash masalasiga oydinlik kiritilgach, berilgan savollarga dalillar bilan javob berish uchun “Go’zal”, “Xalq”, “Binafsha”, “Buzilgan o’lkaga” she’rlari matnini qaytadan ko’zdan kechirish tavsiya qilinadi. Ammo tahlil qilish tartibi qat’iy qilib belgilanmaydi. Tahlil qay tartibda amalga oshirilsa-da, natijasi samarali bo’lishi muhim hisoblandi. Bu esa o’quvchilarga o’z fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish imkonini beradi.

Tahlil variantlari:

1. Har bir she’r matnini alohida-alohida tahlil qilish. So’ng asosiy fikrlar bayonida daliliy mulohazalarni umumlashtirish orqali yakuniy xulosa chiqarish.

2. She’riy matnlar tahlilida qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish. She’rlarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlaridagi farqli va o’xshash jihatlarni aniqlash. Fikr-mulohazalar va asosiy qarashlarni umumlashtirish.

3. Matnlar tahlilini fikr va dalillarning o’zaro integratsiyasi vositasida amalga oshirish. Avval asosiy fikr – tezisni, so’ngra dalillarni bayon qilish. Tahliliy xulosada fikriy tarqoqlik va takrorlarga

yo'l qo'ymaslik.

Insho yozishga tayyorgarlik jarayonida "Binafsha" she'rining qisqacha tahlilini namuna tarzida quyidagi tartibda uyushtirish mumkin.

"Binafsha" she'ri ifodali o'qiladi.

Binafsha senmisan, binafsha senmi,

Ko'chada aqchaga sotilgan.

Binafsha menmanmi, binafsha menmi,

Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?..

So'ngra birmuncha noan'anaviy tarzda quyidagicha savol-topshiriqlar o'rtaga tashlanadi:

1. Mazkur she'r vatan mavzusida yozilganligini qanday isbotlash mumkin? (Matndan mazmunan "Vatan" tushunchasi bilan bog'liq so'zlarni toping.) (*Erkin, kulmaysan, yanchalar, erk yeri, bag'ringga sanchalar, qayg'u*)

2. Matndan ajratib olgan so'zlaringiz qanday ma'nolarni ifodalaydi?

Bu so'zlarning emotsional qiymatini qanday belgilash mumkin? (*Bu so'zlar vatandagi erksizlik, qayg'u, hasrat-nadomatni anglatadi*)

4. Nima sababdan she'r aynan "Binafsha" deb nomlanadi? (*Binafsha bahor darakchisi, ko'klam ko'kati. Endigina dunyoga yuz ochgan ko'kat. Binafsha – hurriyat, erk ramzi*) Hurriyat ramzi bo'lgan binafshaning Cho'lpon yashagan davrdagi tarixiy voqelikka aloqadorligini "O'zbekiston tarixi" darsligidan aniqlab kelish uyga vazifa qilib topshiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarni "O'zbekiston tarixi" darsligidan 1917-yil 28-noyabrda [Чўлпон 2019, 331] Turkiston Muxtoriyati tashkil topganligi, uning qisqa muddat faoliyat yuritib, bosqinchilar tomonidan yanchib tashlangani tafsiloti bilan tanishish orqali binafsha timsoli Turkiston Muxtoriyatini anglatib kelishi haqidagi fikrga yo'naltiradi.

5. She'r matnida erk tushunchasi bilan bog'liq yana qanday tashbehlar uchraydi? (She'rdagi *igna, ko'krak, erk yeri* tashbehlariga tashbehning badiiy san'at sifatidagi o'ziga xos qonuniyatlaridan kelib chiqib e'tibor qaratiladi).

6. "Binafsha" tashbehidagi yashirin majoziy ma'noni qanday tushunish mumkinligini ochib berishga harakat qilib ko'ring. Shoirning "Go'zal" she'ri tahlilida ishlatilgan badiiy san'at turlarini esga oling. She'r tahlilida Cho'lpon she'riyatidagi go'zal, sevikli yor va Vatan timsoli o'rtasidagi munosabatlar ma'nosini qanday

izohlagan edik? (Go'zal – bu Vatan timsolining o'ziga xos talqini. U – Vatan ruhi. Go'zal tashbehida sevgi va ma'naviy poklik tuyg'usi mujassamlashgan. Binafsha ham Vatan ramzini ifodalab kelmoqda. Vatan taqdiri “Binafsha” she'rida yorqin gavdalan tirilgan).

Bunda o'qituvchi darslikdagi ko'chimga doir nazariy ma'lumotlarni qayta ko'zdan kechirishni tavsiya qilishi maqsadga muvofiq: “Yozuvchilar biror so'zga xos ma'noni boshqasiga yuklar, unga ko'chirar ekanlar, xayollariga kelganday, tavakkaliga ish tutavermaydilar. Agar shunday qilinsa, ijodkorlarni tushunib bo'lmay qoladi. Ma'no ko'chirishda narsa-hodisalar o'rtasida yo ichki, yo tashqi, yo mazmun o'xshashligi, aloqadorligi bo'lishi shartdir” [Yo'ldoshev va boshqalar 2017, 309].

“Binafsha” she'ri tahlili davomida o'quvchilar she'r mazmuni yuzasidan o'z kuzatishlari asosida xulosa chiqarishga yo'naltiriladi.

7. She'r mazmuni yuzasidan qanday umumiy xulosaga kelish mumkin?

Fikr bildirishda she'r yozilgan sanaga e'tibor qaratish, tarixdan bu vaqtda O'zbekistonda qanday voqealar yuz berganini o'rganish tavsiya etiladi. Darslikda she'r mazmuniga doir qanday nazariy ma'lumotlar keltirilganligi, bu ma'lumotlar insho mazmunini boyitishga yordam berishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ma'lumki, Cho'lpon “Binafsha” she'rida vatan taqdiriga bo'lgan bir qadar ishonchsizlik, tushkunlik kayfiyatini ifodalagan bo'lsa-da, ruhsizlik shunday qolib ketmaydi, balki uning botinida kelajakka cheksiz umid va ishonch mujassamdir. Vatan taqdirining bosqinchilar qo'lida qolishi, mustamlakachilik zulmining davom etishi mumkin emasligiga ishonch uyg'otadi.

She'rdagi Vatanning bosqinchilar oyog'i ostida toptalishi bilan bog'liq lirik qahramonning adoqsiz qayg'u-hasrati, dard-alami “Binafsha” she'ri tahlilining qisqacha umumiy bayonini uyda dalillar, mulohazalar, qiyoslashlar asosida amalga oshirish topshirig'i berilar ekan, she'r mazmuni yuzasidan bildirilgan fikrlar matn ustida amalga oshirilgani, chunki matn she'r tahlilida eng ishonchli manba hisoblanishi eslatiladi.

Insho yozishda muhim manbalardan biri darslik ekanligini ham nazardan chetga qoldirmaslik kerak. Jumladan, darslikdagi “Binafsha” she'rida “vatan” tushunchasi “ko'kragim” so'zi bilan, “ozod yurt” tushunchasi “erk yeri” so'zlari bilan ifoda etilgani [Yo'ldoshev va boshqalar 2017, 309] haqidagi ma'lumotlar o'quvchiga o'z xulosasini aniqlashtirishga, fikrlariga oydinlik kiritishga yordam beradi.

“She'riy asar tahlilida barcha matnlarga birdaniga mos

keladigan “kalit” yo‘q. Har qanday lirik matn o‘ziga xos bo‘lgani kabi uning tahlili ham rang-baranglik kasb etadi. O‘qituvchining vazifasi har qanday holatda ham lirik asar matniga mos “kalit” topa bilishdir. Bu ishda shoir-o‘qituvchi, o‘qituvchi-o‘quvchining o‘zaro muloqoti yetakchi o‘rin tutadi. Ayniqsa, she‘r muallifi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotda o‘qituvchining o‘rni beqiyos” [Жўраев 2019, 66].

Sir emas, she‘riy asar tahlili nasriy yoki dramatik asarlarga nisbatan shoirning ichki kechinmalari bilan bog‘liqligi tufayli qiyinchilik tug‘diradi. She‘r tahlilida badiiy tasvir vositalari, she‘rning poetik o‘lchami, qofiyalanish tartibi, turoqlarga bo‘linishi, kompozitsiyasi, tasvir tizimi, lug‘at boyligi, rang palitrasi, epigraf kabilar hisobga olinishi, ammo ulardan faqat mavzuni yoritish uchun xizmat qiladiganlarinigina tanlash maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida tushuncha berilishi insho yozish jarayonida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, o‘z fikrlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashga yordam beradi. Alisher Navoiy ta‘biri bilan aytganda, nazmga solingan so‘zning, ya‘ni she‘rning martabasi nasriy so‘zdan balanddir.

Xulosa

Shaxs ma‘naviy kamoloti bilan bog‘liq inson kapitalining ta‘lim tizimiga doir islohotlar mohiyatini tashkil etishi ma‘naviy-axloqiy tarbiya negiziga daxldor adabiy ta‘lim zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Bu borada adabiyotga maxsus ixtisoslashtirilgan maktablarining adabiyot darslarida vatan va xalq tarixiga doir asarlarni o‘qib o‘rganish o‘qituvchilar uchun katta qulaylik tug‘diradi. Shu jihatdan qaraganda, Vatanimizning g‘oyatda tahlikali davrlarida yashab ijod etgan Cho‘lpon she‘riyati ham muhim manba vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar

- Yo‘ldoshev, Q. va boshqlar. 2017. *Adabiyot. 7-sinflar uchun darslik*. Toshkent: Sharq.
- Селевко, Г.К. 2005. *Энциклопедия образовательных технологий*. В 2-х т. Т. 1. Москва: Народное образование.
- Чўлпон. 2019. *Асарлар*. 4 жилдлик. 1-жилд. Тошкент: Akademnashr.
- Жўраев, Ё. 2010. Шеърый асар таҳлилида тадқиқот методидан фойдаланиш. *Узлуксиз таълим* 5: 66. Тошкент.
- Раҳматов, М., Зарипов, М. 2018. *Кластер – интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш*. – Тошкент: Замин нашр.
- Хўжамқулов, У.Н. 2019. Педагогик кластер – янги инновацион аспект. *Теория и практика современной науки*. 2 (44): 57.

- Қосимов, Б. 2002. *Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик*. Тошкент: Маънавият.
- Sultonmurod, O. va boshqalar. 2006. *Adabiyot*. 8-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Differential approach in literary education

Umida Shermatova¹

Abstract

In the education system of the republic, technological processes are being implemented aimed at ensuring the spiritual maturity of the individual, together with a deep understanding of literature, the formation of skills to determine the way of life through it. As a separate solution to the problem, the creation of a differentiated education system arose. With the creation of differentiated educational institutions, a number of questions arose in the field of methods of teaching natural sciences. In particular, the problems associated with the teaching of literature in schools specializing in the teaching of philological sciences require new approaches to a deep understanding of the literary text, the ability to analyze and teach creativity based on the acquired knowledge, skills and abilities.

The literature of the national awakening is important for familiarizing students with various human characters, their national and universal content. Teaching students to write an essay while studying the literature of this period will allow them to become more familiar with the topic. Essay writing, which is the first form of art, requires a certain preparation from the student. The article describes the methodology for teaching writing essays on the lyrics of Cholpon, the great representative of the national awakening in the study of stratified literature.

Key words: *essence, spiritual maturity, specialized literary education, innovative cluster of teacher education, national revival literature, Cholpon's work, essay, artistic analysis.*

References

- Yo'ldoshev, Q. va boshqlar. 2017. *Adabiyot*. 7-sinflar uchun darslik. Тошкент: Sharq.

¹ *Shermatova Umida Sapayevna* – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Senior teacher of Chirchik State Pedagogical Institute, Tashkent Region.
E-mail: abdulazizmannopov07@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-3232-3598
For citation: Shermatova, U. 2022. "Differential approach in literary education". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (4): 113-124

- Селевко, Г.К. 2005. *Энциклопедия образовательных технологий*. В 2-х т. Т. 1. Москва: Народное образование.
- Чўлпон. 2019. *Асарлар*. 4 жилдлик. 1-жилд. Тошкент: Akademnashr.
- Жўраев, Ё. 2010. Шеърӣ асар таҳлилида тадқиқот методидан фойдаланиш. *Узлуксиз таълим* 5: 66. Тошкент.
- Раҳматов, М., Зарипов, М. 2018. *Кластер – интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш*. – Тошкент: Замин нашр.
- Хўжамқулов, У.Н. 2019. Педагогик кластер – янги инновацион аспект. *Теория и практика современной науки*. 2 (44): 57.
- Қосимов, Б. 2002. *Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик*. Тошкент: Маънавият.
- Sultonmurod, O. va boshqalar. 2006. *Adabiyot*. 8-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.